

“O‘ZAGROSUG‘URTA” AKTSIYADORLIK JAMIYATINING “MANFAATLI” NOMLI AKSIYASI QOIDALARI

1. Mazkur qoida “O‘zagrosug‘urta” AJ (keyingi matnlarda “**Sug‘urtalovchi**”) tomonidan o‘tkaziladigan “**MANFAATLI**” nomli aksiya o‘tkazilishining rasmiy qoidasi hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369 va 370 moddalariga asosan ommaviy oferta hisoblanadi hamda mazkur aksiyada qatnashuvchilar (keyingi matnlarda “**Ishtirokchi**”) uchun majburiy hisoblanadi.

2. Mazkur aksiya ommaviy marketing tadbiri bo‘lib, aksiya o‘tkazilishidan asosiy maqsad mijozlar bazasini kengaytirish va bog‘liqligini oshirish, Sug‘urtalovchining ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilari sonini ko‘paytirish, sug‘urta agentlarini jamiyat bilan o‘zaro hamkorligini saqlab qolish, yangilarini jalb qilish, onlayn sug‘urta polislarini sotish va Sug‘urtalovchi daromadlarini oshirishga qaratilgan harakatlar majmui.

3. Ushbu aksiyada **18 yoshga kirgan** va voyaga yetgan, qonunchilikda belgilangan tartibda muomalaga layoqatli deb topilgan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. Ushbu talablarga javob bermaydigan jismoniy shaxslar ishtirokchi sifatida baholanmaydi va o‘z-o‘zidan aksiya g‘olib bo‘lgan taqdirda ham sovg‘alar berilmaydi.

4. Ushbu aksiya doirasida **3 (uch)** toifadagi Ishtirokchilar qatnashadi:

1) Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi (facebook, instragram, telegram) obunachilari;

2) Aksiya davrida aholi bilan bog‘liq sug‘urta turlaridan (TVEFJMS tashqari) 40 mln so‘mdan ko‘p sug‘urta mukofoti ta‘minlab bergan jismoniy sug‘urta agentlari (YATT ham kiradi);

3) Agros.uz rasmiy veb sayti orqali quyidagi sug‘urta polislarini belgilangan talab va shaklda onlayn sotib olgan sug‘urta qildiruvchilar:

№	Sug‘urta turi	Shartlari
1	Jismoniy shaxslarni kompleks sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 35 mln so‘m, shundan uy-joy uchun - 20 mln, oilaviy baxtsiz hodisa uchun 15 mln so‘m; 2. Sug‘urta mukofoti- 100 ming so‘m.
2	Baxtsiz xodisalardan oilaviy sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 10 mln so‘m, 2. Sug‘urta mukofoti- 50 ming so‘m.
3	Sportchilarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 10 mln so‘m, 2. Sug‘urta mukofoti- 40 ming so‘m.
4	Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 10 mln so‘m, 2. Sug‘urta mukofoti- 20 ming so‘m.
5	Transportga o‘rnatilgan gaz uskunalarini sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 15 mln so‘m, shundan gaz uskunasi uchun - 5 mln, umumiy fuqarolik javobgarligi uchun 10 mln so‘m; 2. Sug‘urta mukofoti- 50 ming so‘m.
6	Yuqumli kasalliklardan sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 1 mln so‘m; 2. Sug‘urta mukofoti- 50 ming so‘m.
7	Mehmonxonada istiqomat qiluvchilarni kompleks sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - 25 mln so‘m, shundan umumiy fuqarolik javobgarligi uchun - 20 mln, baxtsiz hodisa uchun 5 mln so‘m; 2. Sug‘urta mukofoti- bir kun uchun 5 ming so‘m.
8	Xodimlarni ishini yuqotishidan sug‘urtalash	1. Sug‘urta javobgarligi - oxirgi o‘n ikki oylik jami ish haqining o‘rtacha 3 oyligi;

		2.Sugʻurta mukofoti- xodimning oxirgi 12 oylik jami ish haqi fondinig 1.0 foizi miqdorida
9	Transport vositalari egalariining fuqarolik javobgarligini (OSAGO) sugʻurtalash – haydovchilar soni cheklanmagan polislari boʻyicha	Qonunchilikda begilangan tartibda
10	Avtotransport vositalarini sugʻurtalash (KASKO)	1. Sugʻurta javobgarligi – arizaga muvofiq; 2. Sugʻurta mukofoti- sugʻurta javobgarligining 1,2 foizi.

5. Aksiya doirasida quyidagi sovgʻalar taqdim etiladi:

- 1) Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi ([facebook](#), [instragram](#), [telegram](#)) obunachilari orasidan **1 (bir) nafar** obunachi kompyuterda Random dasturi orqali tasodifiy tanlab olinadi va unga **1 (bir) dona 43`-Smart TV Televizori** sovgʻa sifatida taqdim etiladi.
- 2) Aksiya davrida aholi bilan bogʻliq sugʻurta turlaridan (TVEFJMS tashqari) **40 mln** soʻmdan koʻp sugʻurta mukofoti taʼminlab bergan jismoniy sugʻurta agentlari (YATT ham kiradi) orasidan **1 (bir) nafar** sugʻurta agenti kompyuterda Random dasturi orqali tasodifiy tanlab olinadi va unga **1 (bir) dona Turkiya davlatiga 7 (yetti) kunga 2 (ikki) kishilik dam olish turiga bilet** taqdim etiladi.
- 3) Agros.uz rasmiy veb sayti orqali mazkur qoidaning 4.3 bandida roʻyxati koʻrsatilgan sugʻurta polislari onlayn sotib olgan sugʻurta qildiruvchilar orasidan kompyuterda Random dasturi orqali tasodifiy 29 (yigirma toʻqqiz) nafar ishtirokchi tanlab olinadi va ketma-ket tarzda quyidagi sovgʻalar taqdim etiladi.
 1. **5 dona Planshet;**
 2. **5 dona Televizor;**
 3. **5 dona Muzlatgich;**
 4. **4 dona Gaz plitasi;**
 5. **4 dona Kir yuvish mashinasi;**
 6. **4 dona Noutbuk;**
 7. **2 dona Turkiya davlatiga 7 (yetti) kunga 2 (ikki) kishilik dam olish turiga bilet.**

6. Har bir aksiya doirasida ishtirokchilar roʻyxati bir joyga jamlanadi va jamlangan maʼlumotlar kompyuterda Random dasturiga tushirilib 1 nafardan gʻolib aniqlab boriladi.

Maʼlumotlarni jamlash va gʻolibni aniqlashda foydalanish uchun:

- Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi ([facebook](#), [instragram](#), [telegram](#)) obunachilari orasida oʻtkazilganda **nickname** (yoki boshqa unikal maʼlumoti)dan;
- Jismoniy sugʻurta agentlari boʻyicha agentning **ismi sharifi va otasining** ismidan;
- Sotilgan onlayn sugʻurta polislari boʻyicha **onlayn polis raqamidan** foydalaniladi.

7. Ushbu aksiya doirasida gʻoliblarni aniqlash maqsadida Sugʻurtalovchi tomonidan ishtirokchilarning maʼlumotlari qayta ishlanadi hamda tegishli sovgʻalar:

- Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi ([facebook](#), [instragram](#), [telegram](#)) obunachilari orasida oʻtkazilgan tanlov gʻolibining ijtimoiy tarmoqdagi nickname eʼlon qilinadi;
- Jismoniy sugʻurta agentlari orasida oʻtkazilgan tanlov gʻolibining ismi sharifi va otasining ismi eʼlon qilinadi;
- Sotilgan onlayn sugʻurta polislari boʻyicha tanlov gʻoliblarining sugʻurta polisi raqami va sugʻurta qildiruvchining ismi sharifi va otasining ismi eʼlon qilinadi.

8. Sugʻurtalovchi tomonidan aksiya shartlari va oʻtkazish muddatlari ishtirokchilarni Sugʻurtalovchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari va/yoki rasmiy veb-saytida ogohlantirishi orqali oʻzgartirilishi mumkin.

9. Sugʻurtalovchi quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:

- aksiya ishtirokchilari toʻgʻrisidagi shaxsiy maʼlumotlarni sir saqlash, qonunchilikda koʻrsatilgan hollar bundan mustasno;
- aksiya shartlari va muddatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni Sugʻurtalovchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari va/yoki rasmiy veb-saytida joylashtirish.

10. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- Ushbu qoida va aksiyaning boshqa shartlariga to'liq amal qilish;
- Ishtirokchi sifatida aksiyada qatnashishdan oldin aksiya shartlari bilan tanishib chiqish.

11. Mijozlarga sovg'alarni taqdim etish bilan bog'liq **barcha turdagi soliqlar Sug'urtalovchi hisobidan amalga oshiriladi.**

12. G'oliblarni aniqlash jarayoni jamiyatning [imtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallarida onlayn efirga uzatiladi.](#)

13. Aksiya doirasida belgilangan sovg'alar boshqa turdagi sovg'aga o'zgartirilmaydi.

Aksiya g'olibiga ijtimoiy tarmoqdagi nickname xabar yozish, elektron pochta manziliga xabar yuborish, ko'rsatilgan raqamga SMS yuborish yoki telefon qilish orqali g'olib bo'lgani to'g'risida xabar beriladi.

Aksiya g'olibi unga xabar yuborilgan yoki u bilan bog'lanilgan kundan boshlab **90 (to'qson)** kun davomida sovg'ani olib ketmasa sovg'a Sug'urtalovchi hisobida qoladi va berilmaydi.

Sug'urtalovchi aksiya g'olibidan tegishli tartibda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini va ijtimoiy tarmoqdagi nickname unga tegishli ekanligini tasdiqlashni talab qiladi.

Sovg'alar Sug'urtalovchi bosh ofisidan g'olibning shaxsan ishtirokida olib ketiladi.

14. Onlayn sotilgan sug'urta polislari bo'yicha Ishtirokchi faqat **1 (bir) marta tanlov g'olibi bo'lishi va 1 (bir) dona sovg'a olishi mumkin.**

15. Aksiya doirasida ko'zda tutilgan majburiyatlar tomonlarga bog'liq bo'lmagan va bartaraf etish mumkin bo'lmagan yengib bo'lmagan kuchlarga (Fors-major) ko'ra bajarish imkoni bo'lmagan hollarda tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi.

16. Aksiya **2022 yilning 26 sentyabr kuni soat 00-00 dan boshlanib 2022 yilning 22 dekabr kuni soat 23-59** ga qadar davom etadi. Aksiya g'oliblari **2022 yilning 27 dekabr kuni** e'lon qilinadi.

17. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun amal qiladi.

18. O'tkaziladigan aksiya doirasida kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi. Hal etilmagan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

MUHIM:

Ushbu aksiya doirasida Jamiyat bilan mehnat shartnomalarini davom ettirayotgan shaxslar ishtirokchi bo'lishi mumkin emas. G'olib bo'lgan ishtirokchilar o'rtasida Jamiyat bilan mehnat shartnomalarini davom ettirayotgan shaxslar aniqlangan taqdirda sovg'alar berilmaydi.

SUG'URTALOVCHI REKVIZITLARI:

"O'zagrosug'urta" AJ

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 19-kvartal 61/2-uy.

Hisobraqam: 20210000900101169001

"Mikrokreditbank" ATB Bosh ofisi

MFO 00433 INN: 201042345

Rasmiy veb-sayt: www.agros.uz

Elektron pochta: info@agros.uz